



## Germaniyada tibbiy muolaja olish maqsadidagi vizani so'rash uchun taqdim etiladigan hujjatlar haqida eslatma

Viza olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etish lozim:

1. batafsil to'ldirilgan va imzolangan [Shengen vizasi so'rovnomasi blankiga](#) yopishtirilgan **fotosurat** hamda viza uchun **qo'shimcha** (bir xil) bitta **fotosurat**;
2. amal qilish muddati so'ralayotgan viza muddati tugaganidan keyin yana kamida uch oyni tashkil etadigan va so'nggi o'n yil ichida berilgan hamda kamida ikkita viza uchun bo'sh sahifasi bo'lgan **pasport**;
3. safar muddatini to'liq qoplagan, barcha Shengen davlatlarida amal qiladigan hamda qoplama miqdori 30.000 evrodan kam bo'lmagan, bemor va unga hamroh bo'lgan shaxs(lar)ning to'liq safar muddatini o'z ichiga olgan **tibbiy sug'urta polisi**;
4. **ish joyi** va oylik maoshi haqida ma'lumotnoma, xizmat guvohnomasi;
5. **firma hujjatlari**: firmaning hokimiyatda ro'yxatdan o'tganligi haqidagi guvohnomasi, litsenziyasi va nizomi nusxalari bilan (faqat firma egalari uchun);
6. **O'zbekistonda yashovchi yaqin oila a'zolarining hujjatlari asli** (masalan, nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma, bolalarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalari va pasporti) va ushbu hujjatlarning bittadan nusxasi.

Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha tarzda **quyidagi hujjatlarning asli va bittadan nusxasi** taqdim etilishi lozim:

### **Bemorlar uchun:**

- **kasalxonaning/ davolovchi shifikorning** bemorning kasalxonada bo'lishi ko'zda tutilgan muddat/ davolanish va muolaja boshlanishining aniq sanasi haqida tasdiqnomasi. Ushbu xatda taxminiy xarajatlar va muolaja muddati haqida ma'lumot kiritilgan bo'lishi kerak.
- **davolanish va Germaniyada bo'lish uchun moliyaviy imkoniyatlar quyidagi hujjatlar orqali tasdiqlanishi mumkin:**
  - a) kasalxonaning taxminiy davolash xarajatlari uchun **to'lov amalga oshirilganligini** tasdiqlovchi hujjati yoki
  - b) **Germaniyada bo'lish haqidagi qonunning 66–68 moddalariga asosan kasalxona tomonidan majburiyatlar bo'yicha erkin tarzda to'ldirilgan ariza yoki kasalxona tomonidan berilgan va davolash xarajatlari uchun to'lov ta'minlanganligini tasdiqlovchi xat;**
  - v) **uchinchi shaxs tomonidan berilgan kafolat xati** - masalan, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan; o'rnatilgan tartibda tuzilgan majburiyatlarni olish haqidagi arizasiz uchinchi shaxs tomonidan kafolat xati berilsa, uning moliyalashtirishga qodirligini zarur

holatlarda davolanish muassasasi joylashgan shaharning xorijliklar masalalari bo'yicha ma'sul idorasi ishtirokida tekshirish lozim bo'ladi. **Bu esa hujjatlarni ko'rib chiqish vaqtini uzaytirishi mumkin.**

g) **o'rnatilgan tartibda tuzilgan majburiyatlarni olish haqidagi ariza** - asosan, ambulantly usuldagi davolanish holatlarida yoki Germaniya hududida bo'lish davolanish muddatidan ko'proq vaqtga mo'ljallangan bo'lsa.

**Hamrohlik qiluvchi shaxslar uchun:**

- yashash uchun joy mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (kasalxona yoki mehmonxonadan joy ajratilganligi bo'yicha kasalxona tasdiqnomasi);
- moliyalashtirish uchun yetarli mablag' mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (kuniga taxminan 45 yevro hisobida) yoki, moliyaviy xarajatlarni o'z zimmasiga olish haqidagi bildirgini o'z ichiga olgan taklifnoma yoki majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqidagi ariza.

**Voyaga yetmagan bolalar uchun:**

- bola ota yoki onasidan biri bilan safarga chiqadigan bo'lsa, unda vasiylik huquqiga ega bo'lgan, biroq safarga birga bormayotgan ota yoki onaning notarius tomonidan tasdiqlangan rozilik xatining asl nusxasi. Bolaga viza olish uchun ota-ona yoki vasiylik huquqiga ega ota yoki ona tomonidan imzolangan alohida viza so'rovnoma taqdim etilishi kerak;
- bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasining asli va nusxasi.

Viza uchun **konsullik badali** 60,- yevroni tashkil etadi va to'lov (amaldagi kursga muvofiq) **faqat AQSH dollarida** amalga oshiriladi. 1996 yilda va undan keyin chiqarilgan, yaxshi holatdagi, hech qanaqa muhr va yozuvlarsiz kupyuralar qabul qilinadi.

**Eslatma:**

Davolanishni tibbiy sabablarga ko'ra darhol amalga oshirilish shart bo'lsa va uni ortga surish imkoni bo'lmasa, bu holat davolovchi kasalxona tomonidan buni tasdiqlovchi hujjatlarni orqali asoslab berilishi lozim. Agar davolanish muddatini oldindan aniqlab bo'lmasa, har bir alohida holatda xorijliklar masalalari bo'yicha mahalliy idoraning ishtiroki zarurligiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz.

Qabulga yozilish haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar va viza bo'limining qabul vaqtlari „[Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma](#)“ va „[Qabulga yozilish tizimi haqida eslatma](#)“ da keltirilgan.